

TA'LIM KLASSTERLARINI TUZISH BO'YICHA XALQARO TAJRIBALAR

¹Badalova Maqsuda Umarovna

A.Avloniy nomidagi Pedagogik mahorat milliy instituti

Bo'lim boshlig'i, i.f.(PhD), dotsent <https://orcid.org/0246-0282-0338-060x>²Badalova Nigora Norqulovna

Menejment va zamonaviy texnologiyalar Universiteti (UMFT), magistr

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ КЛАСТЕРОВ

¹Бадалова Мақсуда Умаровна

Национальный институт педагогического мастерства имени А. Авлони

Заведующий кафедрой, кандидат технических наук, доцент

²Бадалова Нигора Наркуловна

Университет управления и современных технологий (УМСТ), магистр

INTERNATIONAL EXPERIENCES IN FORMING EDUCATIONAL CLUSTERS

¹Badalova Maqsuda Umarovna

National Institute of Pedagogical Skills named after A. Avloni

Head of Department, Candidate of Sciences (PhD), Associate Professor

²Badalova Nigora Norqulovna

University of Management and Modern Technologies (UMFT), Master

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim klasteri bo'yicha xalqaro amaliyot masalasi muhokama qilinadi. Shuningdek, ta'lim klasterlarining tashkil etish natijalari, xorijiy tajribalar tahlili bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, ta'lim klasteri, Klaster modelining turlari, xalqarolashuv, amaliyot, tahlil.

Аннотация. В статье рассматривается международная практика в образовательном кластере. Представлены также результаты организации образовательных кластеров и анализ зарубежного опыта.

Ключевые слова: образование, образовательный кластер, типы кластерных моделей, интернационализация, практика, анализ.

Abstract. This article discusses the issue of international practice in the field of educational clusters. Also, the results of the organization of educational clusters, analysis of foreign experiences are presented.

Keywords: education, educational cluster, Types of cluster models, internationalization, practice, analysis.

Kirish. Hozirgi kunda xalqaro tajribada oliy ta'lim va ilmiy muassasalar klasterlari mavjud bo'lib, ko'pgina mamlakatlarda ta'limni rivojlantirishda yetakchi komponent hisoblanadi.

Germaniyada 2006-yilda iqtisodiyot, ishlab chiqarish va biznesning real sektori bilan hamkorlikni yaxshilash maqsadida TU9 Texnik universitetlar ittifoqi tashkil etilgan. 2012-yilda esa ta'lim xizmatlari bozorida yaxshi obro'ga ega

bo'lgan yana 15 ta universitet U15 deb nomlangan ittifoqqa birlashgan. Norvegiyada 1994-yildan beri integratsiya jarayonlari davom etmoqda. Bu integratsiyaning o'ziga xos xususiyati shundaki, birlashishga qaror qilgan universitetlar bir necha yil ichida o'zlarining avvalgi tashkiliy-huquqiy formatiga qaytishlari mumkin bo'lgan imtiyozga egalari.

Adabiyotlar tahlili. Xitoyda esa 1300 ta

sanoat va innovatsion klasterlar tashkil etilgan. Bu tizimda hozirda 560 mingdan ortiq ilmiy va muhandislik xodimlari (shundan 52 mingdan ortiq magistrlar, 9 mingdan ortiq fan nomzodi), shuningdek, kollej bitiruvchilarining uchdan bir qismi (4 milliondan 1,33 million nafari) faoliyat ko'rsatadi [1,2]. Rivojlangan mamlakatlarda ta'lim klasterlari, ayniqsa keng shakllanmoqda, ularning muhim missiyalari mintaqaviy innovatsiyalarni rag'batlantirishdan iborat ekanligini ko'rsatmoqda.

Qo'shma Shtatlarda klaster ta'lim tuzilmalariga ega bo'lgan Nyu-York va San-Fransisko shaharlarida ikkita taniqli ta'lim klasteri mavjud. Nyu-York hududida Garvard, Nyu-York va Kolumbiya universitetlari, shuningdek, Massachusetts texnologiya instituti va boshqalar kabi 50 dan ortiq yuqori darajadagi universitetlar mavjud. Ular tomonidan tuzilgan klaster fan yutuqlari tajribasiga tayanadi va ilmiy-tadqiqot potensialini ro'yobga chiqarish uchun tadqiqot resurslari, yuqori texnologiyali kompaniyalar tadqiqot markazlari va konsalting kompaniyalari orqali ilm-fan natijalarini (IITKI) amalga tadbiiq etish ishlariga qaratadi. Bunday klasterlar Nyu-York texnologik rivojiga ham hissa qo'shadi va bu uni Qo'shma Shtatlardagi yuqori texnologiyali sanoatning asosiy konsentrawiyasiga aylantirgan [3].

Yaponiyada esa Tokio hududida 120 dan ortiq universitetlar mavjud bo'lib, makroregion, ya'ni bu Davlat universitetlar umumiy sonining beshdan bir qismini tashkil qiladi. Masalan: Tokio universiteti, Vaseda universiteti, Yokogama Milliy Universiteti va boshqalar. Bu dunyodagi juda mashhur ta'lim maskanlari bo'lib, ular o'rtasida kuchli hamkorlik aloqalar mavjud bo'lib, bu yirik dunyoda mashhur Yaponiyaning eng katta sanoat shahar majmuasi, dunyoga mashhur moliya markazi, yangi texnologiyalar markazi tashkilotlarning paydo bo'lishiga yordam berdi [2].

Tahlil va natijalar. Fransiya davlatiga e'tibor qaratsak, ushbu mamlakatda 2006-yildan beri 20 dan ortiq ta'lim muassasalari tashkil etilgan. Klasterlar, shu jumladan: Sharqiy Parij (Union) universiteti, Klermon (Union) universiteti, Parij fan va adabiyot klasteri turlar - Lotin kvartallari va boshqalar. Bu klasterlar fransuz oliy ta'lim resurslarining tizimli rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Klasterlarning yaqin hamkorligi fransuz ta'limi va xalqaro tadqiqotda statusini yuqori darajaga ko'tardi [4].

Tataristonda 2007-2008-yillarda klasterli yondashuv respublika iqtisodiyoti samaradorligini oshirishning asosiy istiqbolli vositasi sifatida e'tirof etilgan va ushbu Davlatda ta'lim klasterlarini shakllantirish konsepsiyasi ishlab chiqilib, tasdiqlangan;

Omsk davlat pedagogika universiteti negizida kasbiy-pedagogik ta'lim tashkilotlarining tarmoq birlashmasi sifatida mintaqaviy kasbiy-pedagogik klasteri tashkil etilgan. Ushbu klaster faoliyati o'qituvchilarning hududlarda kasbiy kompetentligini oshirish tizimini joriy etishga imkon beradi va mehnat bozori ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta'lim sohasida mutaxassislar tayyorlash tizimini rivojlantiradi;

Qozog'istonda Nazarboyev universiteti negizida innovatsion ta'lim klasteri, talabalarni kelajakdagi kasbiy faoliyatini rivojlantirishga yordam beruvchi, ularga ilg'or tajribalarni o'rganish, umumlashtirish, ilm-fan yutuqlarini tezda sinab ko'rish imkonini beruvchi fenomen sifatida tashkil etilgan. Mazkur innovatsion ta'lim klasteri Nazarboyev universiteti negizida ikki yo'nalishda faoliyat yuritmoqda: o'z tadqiqot natijalarini bozorga tarqatish orqali texnologiyalarni transfer qilish va tijoratlashtirish; universitet sanoat maydonchasida ilmiy bo'limlar, tajriba o'tkazish maydonlari, yuqori texnologiyali kompaniyalarni tashkil etishga tadbirkorlik subyektlarini, shu jumladan xorijiy korxonalarni jalb qilish orqali tashkil etilgan [5].

2015-yilda Belarus Respublikasida ta'limning turli darajalariga erkin va shartnoma asosida faoliyat yurguzuvchi ta'lim muassasalari, ilmiy, ilmiy-uslubiy, jamoat tashkilotlari majmui sifatida uzluksiz pedagogik ta'limning o'quv, ilmiy va innovatsion klasteri tashkil qilina boshlangan. Uning konseptual asoslari va nazariy-uslubiy yondashuvlari taniqli Belarus olimlari A.I.Juk, A.V.Torxovaning tadqiqotlariga asoslangan va uning asosiy afzalliklari quyidagilarni o'z ichiga oladi: sifat, zamonaviylik, qulaylik, uzluksizlik, vorislik. Bu bir qator amaliy va iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi: asosiy masalalar atrofida intellektual resurslarni birlashtirish, barcha ishtirokchilarning tarmoqda o'zaro hamkorligini tashkil etish; pedagogik mutaxassislarga abituriyentlar tanqisligini bartaraf etish, eng yaxshi talabalarni klaster faoliyatiga jalb etish; pedagog kadrlarni amaliyotga

tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishni kuchaytirish; takomillashish muhitini yaratish, ta'lim mutaxassisini kasbiy tayyorlash va jamoaga moslashish vaqtini qisqartirish kabilardir. Xalqaro tajribani o'rganish asosida, shuni ta'kidlash joizki, ta'lim klasteri uzluksiz ta'lim tizimidagi barcha ta'lim turlari, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlari, amaliyot bazalari, ilmiy va ilmiy-metodik tuzilmalarning bir butunligi bo'lib, ularning birgalikdagi vazifalar taqsimlangan faoliyati pedagogik ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish imkonini beradi, deb fikr bildirish mumkin.

Ta'lim klasterlari to'g'risida gap borar ekan, zamonaviy ta'lim klasterlarida mamlakatlarda nafaqat oliy ta'lim muassasalarining gorizontol birlashmalari balki tadqiqot institutlari, balki bir xil yo'nalishdagi turli darajadagi boshlang'ich, o'rta maktablar va universitetlarning vertikal holatda birlashmalari ham mavjud. Birinchisi bolalar va o'smirlar bilimidagi qobiliyat va innovatsiyalarni tadqiqotlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lsa, ikkinchisi o'quvchilarning bazaviy ta'limini mutanosib va asosiy maqsadga yo'naltirilganidadir. Har qanaqasida ham qoida tariqasida, ta'lim innovatsion klasterlari ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlarining o'zaro hamkorligini talab etadi.

Xulosa. Klaster miqyosida qator ta'lim muassasalari birlashishadi va o'z resurslarini o'zaro bog'lashadi. Ta'lim muassasalari bilan bir qatorda maktabdan tashqari ta'lim muassasalari ("Barkamol avlod" bolalar maktablari, bandlik markazlari, o'quv markazlari va shu kabilar), mahalliy sanoat korxonalari va turli ijtimoiy birlashmalar ham qo'shilishi mumkin. Shu tarzda o'sha hududdagi maktablar o'zaro aloqalari jadallashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Оу Сяоцзюнь. Исследование развития университетских кластеров высокого уровня в районе Большого залива мирового класса: на примере Нью-Йорка, Сан-Франциско и Токио // Журнал Сычуаньского университета науки и технологий (издание по социальным наукам). - 2018. № 33. б. 83-100.
2. Гао Иншуан. От концентрации к совершенству: исследование французской кластерной организации высшего образования // Образовательное исследование Университета Цинхуа. - 2012. б. 64-70.
3. Сенюк, Н. Ю. Возможности и механизмы инновационно-инвестиционного сотрудничества России и КНР в эпоху глобализации / Н. Ю. Сенюк // Качество. Инновации. Образование. – 2007. – № 4 (23). – б. 37-47.
4. Еспаев С. С., Образовательный кластер – залог конкурентоспособности кадров в Казахстане /С. С. Еспаев // Глобальные вызовы и современные тренды развития высшего образования: Международная научно-практическая конференция, посвященная 50-летию Казахского экономического университета имени Т. Рыскулова : сб. тезисов 4-5 октября 2013 г. – Алматы, 2013. – б. 159 -162.
5. Жук.А. И. Система педагогического образования Республики Беларусь: достижения, трудности, перспективы / А. И. Жук, А. В. Торхова // Адукацыя і выхаванне. – 2014.– № 10. – б. 19

